



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI KENGASH
QARORI

2025-yil 31-yanvar

№ 6/5.5-son

Jizzax sh.

**Kurs ishini bajarish bo‘yicha
yo‘riqnomani tasdiqlash to‘g‘risida**

Kurs ishini bajarish bo‘yicha yo‘riqnomani tasdiqlash to‘g‘risidagi masala yuzasidan o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor F.Jurakulovning axborotini tinglab va muhokama qilib, Kengash a‘zolarining bildirgan fikr-mulohazalari asosida universitet Kengashi

QAROR QILADI:

1. Kurs ishini bajarish bo‘yicha yo‘riqnomani tasdiqlash to‘g‘risidagi masala yuzasidan o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor F.Jurakulovning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Kurs ishini bajarish bo‘yicha yo‘riqnoma ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor F.Jurakulovga:

3.1. 20 fevralga qadar muddatda universitetda “Kurs ishini bajarish bo‘yicha yo‘riqnoma”ni amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha buyruq loyihasi tayyorlash va tasdiqqa kiritish vazifasi yuklatilsin.

4. Ushbu qaror qabul qilinishi munosabati bilan universitet Kengashining 2024-yil 29-fevraldagi 7-son majlisining 7/6.9-son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin

5. Ushbu qaror nazorati o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor F.Jurakulov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



Sh.S.Sharipov

Kengash kotibi



A.Z.Suvonkulov



«TASDIQLANGAN»

Universitet Kengashining 2025-yil
31.01 dagi 6/5.5-sonli qarori asosida
Kengash raisi, rektor prof.
Sh.Sharipov
«31» yanvar 2025 yil

KURS ISHINI BAJARISH BO‘YICHA YO‘RIQNOMA

Umumiy qoidalar

1. Kurs ishi – Ta’lim yo‘nalishlari hamda mutaxassisliklari o‘quv rejasida semestr yakunida ko‘zda tutilgan muayyan fan doirasida talabaning bilim va ko‘nikmalarini qay darajada o‘zlashtirganligini belgilovchi mustaqil tadqiqot ishi hisoblanadi. Kurs ishlari O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2021-yil 19-oktyabrdagi 35-2021-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti” talablari asosida amalga oshiriladi. Uni bajarish talabalarning fan bo‘yicha olgan bilimlarini mustahkamlash, mustaqil ravishda ilmiy -tadqiqot ishlarini olib borish ko‘nikmasini egallash, ilmiy ish natijalarini ijodiy yakunlashni o‘rganishiga yordam beradi.

Kurs ishi yozishning maqsad va vazifalari

Kurs ishi talabani mustaqil ishlashga, ma’lumotlarni tahlil qilish, baholash, samarali fikr yuritish qobiliyatini oshirishga, oliy ta’lim va kasbiy sharoitlarda muhim bo‘lgan tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Kurs ishini bajarishdan maqsad – o‘quv dasturida ko‘rsatilgan ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarda olingan nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash va kengaytirishdir. Bu talabalarga ushbu bilimlarni aniq, real muammolarni hal qilish uchun qo‘llash imkoniyatini beradi, hisobot yozish, bitiruv va malakaviy loyihalarni bajarish uchun muhim ko‘nikmalarni rivojlantiradi.

Kurs ishining vazifalari:

ma’ruzalarda o‘rganilgan nazariy bilimlarni mustahkamlash va ushbu bilimlarni real muammolariga qo‘llash orqali tushunchalarini kengaytirish.

tanlangan mavzu bo‘yicha turli yondashuvlarni o‘rganish, ulardan foydalanishni asoslash va aniq savollarni shakllantirish.

savollarga javob berishda turli manbalardan olingan ma’lumotlarni tahlil qilish, baholash va yechimlarni taklif qilish.

ishning sifati va ishonchliligini ta’minlash uchun to‘g‘ri havola va iqtibos texnikasini qo‘llash.

aniq va yaxshi tuzilgan yozma matnda xulosa va tavsiyalarni ilmiy – uslubiy qabul qilingan tartibda taqdim etish.

Kurs ishini tashkil etish

2.1. Kurs ishi mavzusini tanlash jarayoni

Kurs ishi topshiradigan talabalarga biriktirilgan ilmiy rahbarlar, mavzular ro‘yxati, kurs ishini tayyorlash shakllari kafedralarning o‘quv yilining sentabr oyining birinchi kafedra yig‘ilishi bayoni bilan tasdiqlanadi.

Kurs ishining mavzulari fanning mohiyati va umumiy maqsadlari bilan bog'lanadi. Profeesor-o'qituvchilar tomonidan talabalarga fanning tasdiqlangan o'quv dasturi (Sillabus) mavzulari bo'yicha umumiy ko'rsatmalar va mavzu tanlash moslashuvchanligi beriladi. O'quv dasturi (Sillabus) da ko'rsatilmagan, lekin fan bilan bog'liq mavzuni o'rganish istagini talaba bildirsa va kafedra tomonidan mavzu tegishli deb topilsa ruxsat beriladi. Bir nechta talabalar bir xil mavzuni tanlagan hollarda, mavzuning turli tomonlari o'rganilgan taqdirdagina ijozat beriladi. Maqsad, mustaqil fikrlashni rag'batlantirish va talabalarga mavzu doirasida alohida qiziqish uyg'otadigan muammolarni o'rganishga imkon yaratishdir. Talabalar mavzuni tanlagandan so'ng kafedra qarori bilan tasdiqlanadi. Kurs ishi rahbari, fan bo'yicha mutaxassis kurs ishini bajarish davomida talabaga maslahat beradi, kurs ishi rejasini ishlab chiqishda ko'maklashadi va o'z vaqtida bajarishga yo'naltirib boradi. Talaba o'quv va ilmiy standartlarga rioya qilinishini ta'minlash uchun kurs ishi rejasini, adabiyotlari, usullarini va muddatlarini rahbar bilan muvofiqlashtirishi kerak.

2.2. Kurs ishining strukturasi va rejasini ishlab chiqish

- kurs ishi shaklini (yozma ish, loyiha, laboratoriya ishi, tajriba-sinov, ijodiy ish va h.) va qamrovini (nazariy, tarixiy, emperik, analitik) aniqlash.

- birlamchi (asl matnlar, tadqiqot ishlari, tarixiy hujjatlar), ikkilamchi (kitoblar, jurnal maqolalari, tahliliy sharhlar), uchinchi darajali (ensiklopediyalar, qo'llanmalar, veb-saytlar) manbalarni o'rganish.

- mavzuni tadqiq qilish usullarini (induksiya va deduksiya, tuzilmaviy funksional, analiz va sintez, eksperiment, sotsiometrik (so'rov, anketa, suhbat-intervyu) aniqlash.

- maqsad va o'rganilgan materiallar asosida bo'limlarni shakllantirish (kirish, asosiy qism, xulosa, foydalangan adabiyotlar, ilova).

- 1) "Kirish"da (matnning 5 %) – mavzuning dozarbligi va ahamiyatini qisqacha tanishtirish; ko'rib chiqilayotgan savolni aniq ko'rsatish; maqsad va vazifa nima ekanligini bayon qilish; gipotezani taqdim etish.

- 2) "Asosiy qism" da (matnning 15 %) – mavzuga oid adabiyotlarni umumlashtirish; ma'lumotlarni tahlil va muhokama qilish; gipotezani ilgari surish, nuqtai nazarni taqdim etish va ahamiyatini asoslash;

- 3) "Xulosa"da (matning 3 %) – asosiy dalillarni ko'rsatish; natijalar va ahamiyatini ochish; tavsiyalar berish.

- 4) "Foydalangan adabiyotlar" (matnning 2%) da – kurs ishini yozishda foydalangan manbalar ro'yxati ko'rsatiladi.

- 5) "Ilova" (matnning 2%) lar – ya'ni jadvallar, grafiklar, xujjatlar nusxalari, diagrammalar, videolar, so'rovnoma natijalari kabilar kiritiladi, ular mavzuga chuqur kirib borishni ta'minlaydi, o'rganish ko'p vaqtni talab qiladigan vazifalarni ixchamlashtiriladi, belgilangan maqsadni tashkil qilishda yordam beradi.

3. Kurs ishida amalga oshirilishi kerak bo'lgan ishlar

3.1. Kafedraning asosiy vazifalari

- kurs ishlari dasturning ta'lim maqsadlariga mos kelishini ta'minlash.
- kurs ishi mavzulari ro'yxatini tasdiqlash.
- malakali professor-o'qituvchilarni rahbar sifatida tayinlash.
- talabalarga mavzu tanlash, tadqiqot usullari va ishlarini tuzishda yordam berish uchun maslahat seminarlarini tashkil qilish.

- resurslarga, jumladan kutubxonalar, ma'lumotlar bazalari va tegishli adabiyotlarga kirishni ta'minlash.

- talabalar kurs ishini rasmiylashtirishda o'quv-ilmiy standartlarga rioya qilishlarini ta'minlash.

- yaxlitlikni ta'minlash uchun plagiatni aniqlash choralarini ko'rish.

- talabalar va rahbarlardan davriy ishlar haqida hisobotlarni talab qilish.

- **yakuniy himoyadan oldin dastlabki baholashni amalga oshirish.**

- kurs ishlarini baholash uchun himoya taqdimotlarni tashkil qilish.

- kurs ishi mavzulari, talabalar topshiriqlari va baholar yozuvlarini saqlash.

3.2. Ilmiy rahbarning vazifalari

- o'quv dasturi va institutsional talablarga muvofiqligini ta'minlaydigan kurs ishlari bo'yicha ko'rsatmalarni ishlab chiqadi.

- talabaga kurs ishiga qo'yiladigan talablar, muddatlar va baholash mezonlari haqida ma'lumot beradi.

- talabalarning axloqiy me'yorlarga rioya qilishini, jumladan plagiatning oldini olish va to'g'ri iqtibos keltirish amaliyotini ta'minlaydi.

- talabaning ish rejalari, tadqiqot usullari va adabiyot manbalarini ko'rib chiqadi va tasdiqlaydi.

- talabarga kurs ishini takomillashtirish uchun konstruktiv fikr-mulohazalarni taqdim etadi.

- **kurs ishining o'quv-ilmiy qat'iylik va amaliy ahamiyatga ega bo'lishini ta'minlaydi.**

- yakuniy topshirishdan oldin talabaning kurs ishi bo'yicha tahrir va tuzatishlar kiritadi.

- zarur bo'lganda kurs ishini himoya qilish mashg'ulotlarini tashkil qiladi va olib boradi.

- belgilangan mezonlar asosida kurs ishlarini tekshirish va baholashda ishtirok etadi.

- kurs ishi mavzulari, topshiriqlari va baholari yozuvlarini yuritadi. • **kurs ishi natijalari to'g'risida kafedraga hisobot beradi.**

- kurs ishi tartiblarini takomillashtirishni taklif qiladi.

3.3. Talabaning vazifalari

- kurs ishi mavzusini tanlash yoki muqobil mavzuni taklif etish

- ilmiy rahbar bilan maslahatlashgan holda ish rejasini ishlab chiqish, kurs ishi usullari va muddatlarini belgilash.

- kitoblar, jurnallar va ma'lumotlar bazalari kabi manbalardan foydalangan holda mustaqil tadqiqot o'tkazish.

- ilmiy va axloqiy tadqiqot standartlariga rioya qilgan holda ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish.

- kurs ishi yozish ko'rsatmalariga rioya qilish (format, iqtiboslar, tuzilma).

- kurs ishini kirish, asosiy qism va xulosa qilib tashkil qilish.

- taqdimotda aniq dalillar, tanqidiy tahlil va ravshanlikni ta'minlash.

- barcha manbalarni to'g'ri keltirish orqali plagiatdan saqlanish.

- yo'l-yo'riq va fikr-mulohazalar uchun rahbar bilan rejalashtirilgan uchrashuvlarda qatnashish.

- kurs ishiga rahbarning fikr-mulohazalarini kiritish.
- kurs ishini belgilangan muddatgacha topshirish.
- og‘zaki taqdimotga tayyorlanish.
- kurs ishi natijalari, metodologiyasi va xulosalari bo‘yicha savollarga javob berishga tayyor bo‘lish.

4. Ishga tayyorgarlik

4.1. Adabiyotlarni turkumlash, foydalanish va jamlangan bibliografiyani yaratish

- a) normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar.
- b) monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to‘plamlar.
- c) gazeta, jurnal, xorijiy adabiyotlar va internet saytlari. – adabiyotlar fanga, mavzuiga mosligini aniqlash (huquq, din, ijtimoiy yoki tabbiy fanlar, zamonaviy nazariyalar). – manbalarni muallifi, nashr qilingan sanasi, asosiy tendensiyasi va dolzarbligi asosida tanlash. – manbalarni ishonchiligini tekshirish (turli nuqta nazarlarni taqdim etadigan, eksperlar, soxa mutaxassisligi tomonidan baholangan, dallillangan, iqtibosli kitoblar, ilmiy nashriyotlar tomonidan nashr qilingan, ta’lim muassasalari nashrlari, davlat saytlari). - yuqori sifatli, tan olingan mahalliy va xalqaro jurnallarga murojat qilish. – hisobotlar, ishchi hujjatlar, tezislari va ilmiy konferensiya materiallarini bir nechta adabiyotlar orqali o‘zaro tekshirish.

4.2. Kurs ishining tarkibiy tuzilishi

- kurs ishining titul beti (1-ilova).
- kurs ishning rejasi (2-ilova).
- foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (3-ilova).
- ilova (jadvallar, grafiklar, xujjatlar nusxalari, diagrammalar).

4.3. Kurs ishini texnik rasmiylashtirish

Kurs ishi standart A4 oq qog‘ozning bir tomoniga yozilishi kerak. Har bir varaqning chetlari quyidagicha bo‘lishi kerak: chapdan - 3,0 sm, o‘ngdan - 1,5 sm, yuqori va pastki - 2,0 sm. Kurs ish rejasidagi savollarning nomlari matnda sarlavha sifatida ko‘rsatilishi kerak. Hajmi fanning ixtisosligiga qarab 25-30 bet (26-32 bet qo‘lda yozilgan) bo‘lishi, matn qog‘ozning bir tomoniga yozilgan, aniq, toza va tuzatishlarsiz bo‘lishi kerak. Sahifani raqamlash uchinchi sahifadan (kirish qismidan) boshlanishi kerak. Tugallangan kurs ishi talaba va ilmiy rahbar tomonidan imzolanishi kerak.

Iqtiboslar keltirilganda asl matn to‘liq saqlanishi va tegishli iqtibos qoidalariga muvofiq qo‘shirnoq ichiga joylashtirilishi kerak. Iqtibos (sitata) qo‘shirnoqdan keyin qo‘yiladi, bunda foydalangan adabiyotlar ro‘yxatidagi tartib raqami va olingan iqtibos matni beti ko‘rsatiladi (1, 8-b).

5. Kurs ishini himoya qilish

5.1. Tugallangan kurs ishi rahbar tomonidan ko‘rib chiqiladi va yozma xulosa berilgandan so‘ng yakuniy nazorat sanasidan ikki hafta oldin kafedra **kabinet mudiriga taqdim etiladi. Taqdim etilgan kurs ishlari kafedra mudiri tavsiyasi asosida kurs ishini ko‘rib chiqish hamda taqriz berish uchun kafedra dotsenti, katta o‘qituvchi yoki professor-o‘qituvchilariga yuboradi. Berilgan taqriz quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak:**

- 1) Ishning kuchli tomonlari.
- 2) Xatolar va kamchiliklar.

3) Belgilangan talablarga muvofiqligi.

4) Himoyaga qo'yilishi yoki qo'yilmasligi ko'rsatib o'tiladi.

Ko'rib chiqish asosida kafedra mudiri kurs ishi himoyaga o'tishi mumkinligi to'g'risida qaror qabul qiladi. Talabalar o'z ishlarini dekanat tomonidan belgilangan muddatda ochiq himoya qiladilar. Himoya komissiyasi tarkibiga kafedra mudiri, ilmiy rahbar va dekan tomonidan tasdiqlangan kamida 4-5 nafar mutaxassis kiradi.

5.2.Kurs ishini himoya qilish tartibi va baholash

Talaba kurs ishining asosiy jihatlari – tadqiqot savoli, metodologiyasi, xulosalari va xulosalarini jamlagan qisqa taqdimotni (8-9 ta slayd) orqali taqdim etadi (10-15 daqiqa).

Taqdimotdan so'ng, komissiya a'zolari (ularga professor, taqrizchilar yoki boshqa ekspertlar kirishi mumkin) talabalarga ularning ishi bilan bog'liq savollar beradi.

Himoyadan so'ng komissiya a'zolari yakka tartibda muhokama qiladi va kurs ishi bo'yicha yakuniy qarorga keladi. Bunda talabaning mavzuni tushunishi, uning dolzarbligi va ahamiyatini ochib berishi, tahlilining puxtaligi va aniqligi, tegishli manbalardan to'g'ri foydalanish darajasi, yozish sifati va tuzilishi, ma'lumotlarning asosligi, berilgan savollarga javobning aniqligi baholanadi.

Kurs ishining bahosi 100 ballik tizimda baholanadi hamda Hemis platformasiga kiritish uchun 20 balga konvertatsiya qilinadi.

90-100 ball - "Talaba kurs ishi mavzusi doirasida mustaqil xulosaga va natija qila olgan, ijodiy fikrlay olgan, mustaqil mushohada yuritgan, olgan bilimni amalda qo'llay olgan, mavzuning mohiyatini tushungan, bilgan, ifodalay olgan, aytib bergan, kurs ishi mavzusi bo'yicha tasavvurga ega" deb topilganda.

70-89,9 ball - "Talaba kurs ishi bo'yicha mustaqil mushohada yuritgan, natija qila olgan, mavzuning mohiyatni tushunadi, bilgan, ifodalay oladi, aytib bergan hamda mavzu bo'yicha tasavvurga ega" deb topilganda.

60-69,9 ball - "Talaba natija qila olgan, mavzuning mohiyatni tushunadi, bilgan, ifodalay oladi, aytib bergan hamda mavzu bo'yicha tasavvurga ega" deb topilganda.

0-59,9 ball - "Talaba kurs ishi talablarini bajarmagan, mavzuning mohiyatini tushunmaydi, mavzu bo'yicha tasavvurga ega emas" deb topilganda.

Kurs ishi himoyasi quyidagi hollarda qoniqarsiz baholanadi:

- kurs ishining mazmunini talab asosida yoritib bera olmasa;

- maxsus adabiyotlar, darsliklar, o'quv qo'llanmalar, monografiyalar, ilmiy jurnallardagi maqolalar va internet ma'lumotlaridan foydalanmasdan, faqat darslikning o'zidan foydalanib tayyorlangan ishlar;

- darslik, o'quv qo'llanma yoki monografiyalardan tayyorlangan konspekt asosida ko'chirib tayyorlangan, foydalanilgan adabiyotlar yoki mualliflar ishlariga iqtibos (ssilka)lar qilinmagan ishlar;

- kurs ishi mavzusining mazmuni yoritib berilmagan va juda qo'pol xatolarga yo'l qo'yilgan ishlar;

- ko'p sondagi grammatik va stilistik xatolari bo'lgan, shuningdek, tartibsiz va noto'g'ri tayyorlangan ishlar.

Kurs ishini bajarishi va himoya qilishi natijalari kafedra bayonnomasi asosida qaydnomaga rasmiylashtiriladi hamda HEMIS platformasidagi fan qaydnomasida oraliq nazorat hisobidan 20 bali kurs ishiga ajratiladi. Kurs ishi himoyasida ajratilgan

ballning 60 foizini to'play olmagan talabalar kafedra bayonnomasidagi qaydnomaga nol (0) ball qo'yiladi hamda Hemis platformasiga ham nol (0) ball qo'yiladi.

Kurs ishi natijalari yakuniy nazorat haftaligidan bir hafta oldin Hemis platformasiga kiritilgan bo'lishi shart. Kurs ishidan qoniqarsiz baho olgan talaba yakuniy nazoratga qo'yilmaydi.

Belgilangan muddatlarda taqdim etilmagan kurs ishi kafedra va himoya komissiyasi tomonidan ko'rib chiqilmaydi. Ko'rsatilgan muddatda kurs ishini kafedraga topshirmagan, kurs ishini himoya qilmagan, himoyada qoniqarsiz baho olgan talabalar akademik qarzdor hisoblanadi va ular kurs ishini qayta topshirish jarayonida bir marta qayta himoya qilish imkoniyati beriladi.

Himoyadan o'tgan kurs ishlari kafedrada 2 yil saqlanadi.

O'quv ishlari bo'yicha prorektor:



F.Jo'raqulov

O'quv-uslubiy ta'minot bo'limi boshlig'i:



A.Abduraxmonov

Katta yuristkonsult:



A.Aliqulov

1- Ilova

**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVASIYALAR VAZIRLIGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

Boshlang'ich ta'lim fakulteti
“Boshlang'ich ta'lim” bakalavr
yo'nalishi

Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası

“Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fanidan

KURS ISHI

Mavzu: Shaxsning ijtimoiylashuvida tarbiyaning o'rni

Bajardi: _____ Boshlang'ich ta'lim bakalavr yo'nalishi
4-kurs talabasi Zarnigor

Abdug'aniyeva Kurs ishi rahbari: p.f.n., dots. G.Xolboyeva

JIZZAX-2024

Mundarija
R E J A

I. Kirish

II. Asosiy qism

1.
2.
3.

III. Xulosa

IV. Foydalanilgan adabiyotlar

(3-Ilova)

1.
2.
3.
4.
5.

V. Ilova.

1.
2.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I.NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR VA METODOLOGIK AHAMIYATGA MOLIK NASHRLAR

- 1.
- 2.
- 3.
- 4.

II.MONOGRAFIYA, ILMIY MAQOLA, PATENT, ILMIY TO‘PLAMLAR

- 5.
- 6.
- 7.
- 8.

III. GAZETA, JURNAL, XORIJIY ADABIYOTLAR

- 9.
- 10.
- 11.
- 12.

IV. INTERNET SAYTLARI.

- 13.
- 14.
- 15.
- 16.